

8.3. AMALIY MASHG'ULOT. ODAMNING AYIRISH ORGANLARINI MODELLASHTIRISH

Maqsad: odamning ayirish organlari tuzilishini modellashtirish orqali o'rghanish.

Odamning siyidik ayirish sistemasi bir juft buyraklar, ulardan boshlanuvchi siyidik yo'llari, qovuq hamda siyidik chiqarish kanalidan iborat. Qondagi moddalar almashinuvi qoldiqlari buyraklarda filtrlanadi va siyidik yo'llari orqali o'tib qovuqda to'planadi, so'ng siyidik chiqarish kanalidan o'tib, maxsus teşik orqali tashqariga chiqariladi. Hayvonlarni siyidik ayirish sistemasini modellashtirish orqali o'rghanish mumkin.



Bizga kerak: karton va rangli qog'oz, chizg'ich, yelim, qaychi, plastmassa pichoqcha, po'kak.

Xavfsizlik qoidalari:

1. Plastmassa pichoqcha, qaychi va egiluvchan sim bilan ishlaganda ehtiyyot bo'ling.
2. Rangli bo'yoqlardan foydalanganda ust-boshingizga rang tegmasin.

Ishning borish tartibi:

1. Po'kakdan uzunligi 10 cm, eni 5 cm, qalinligi 1 cm ga teng bo'lakni oling. Po'kakka loviya shaklidagi o'ng va chap buyraklar, buyragusti bezi shaklini chizing hamda qirqib, dastlabki buyrak namunasini tayyorlang.

2. Qontomirlarni yasash uchun uzunligi 15 cm, eni 15 cm bo'lgan po'kakka pastki qismi ikkiga ayrilgan qontomirlar rasmini chizing va uni qirqing. Qontomirlarning biri ikkinchisining bir tarmog'i bilan kesishgani sababli bir tarmoq kesiladi, so'ng yelim bilan joylashtiriladi.

3. Po'kakdan uzunligi 12 cm, eni 9 cm, qalinligi 1 cm bo'lgan qismini qo'lingizga oling va siyidik pufagining rasmini chizing. Siyidik pufagi shakli saqlangan qismini qirqib oling.

4. Siyidik pufagining o'rta qismini kosasimon qilib qirqing. So'ng siyidik chiqarish kanalini hosil qiling.

5. Qolgan po'kakdan ikkita siyidik chiqarish kanalini qirqib oling.


6. To'rtta egiluvchan simga qog'ozni bir necha qavat qilib o'rabb, yopishtirib qo'ying. Undan har bir buyrakka kiruvchi va chiquvchi arteriya va vena qontomirlari sifatida foydalaning.

7. Shundan so'ng har bir siyidik ayirish organini namunada berilgan ranglarga mos holda rangli bo'yoqlar bilan bo'yang.

8. Har bir buyrakka kiruvchi arteriya va vena qontomirlarini namunadagidek qilib o'rnatting.

9. Siyidik yo'llarini buyraklar va siyidik pufagi bilan birlashtiring.

10. Hosil bo'lgan modelni biror qattiq kartonga joylashtiring.



Siyidik ayirish organlari sistemasi modeli.

Muhokama qiling va xulosa chiqaring.